BO‘LAJAK RAHBARLARNING KREATIV MALAKASINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Shodiboyeva Mohinur Abdurahmon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
e-mail: mohinurshodiboyeva6@gmail.com
Abdusalomova Shahnoza Abdurashid qizi
Guliston davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak rahbarning kreativ kompetentligini rivojlantirish bilan birga maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarning kasbiy yetukligiga oid bir qancha ma'lumotlarga ega bòlish uchun shaxsga xos kreativlik sifatlari, kreativlikning rivojlantirish bosqichlari, kreativ layoqatning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari hamda kreativ o‘qitishning metod va usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, Tarbiyachi, Rahbar, Kreativ kompetentlik, Ilmiy-metodik tayyorgarlik, Ta’lim, Individual, G‘oyaviy e'tiqod, Ijodiy fikrlash, Interfaol o‘qitish, Innotvatsion yondashuv, Metodika, Intellektual, Yaratuvchanlik, Ko‘nikmalar, Rag‘batlantiruvchi strategiyalar,O‘quv mashg‘ulotlar.

Abstract: This article discusses the development of the creative competence of future leaders, along with providing various insights into the professional maturity of specialists in preschool education organizations. It covers the individual creative qualities of a person, the stages of developing creativity, the interconnected components of creative abilities, the factors for developing creative competence, and the methods and techniques of creative teaching.

Keywords: Creativity, Educator, Leader, Creative competence, Scientific-methodological training, Education, Individual, Ideological conviction, Creative thinking, Interactive teaching, Innovative approach, Methodology, Intellectual, Creativity, Skills, Motivational strategies, Learning activities.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlar, ilm-fan, texnika, texnologiyalar sohasidagi taraqqiyot va axborotlar globallashuv jarayonida uzluksiz ta’lim tizimini xususan,maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishga izchil faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish va rahbarning kreativ malakasini oshirish masalalari dolzarb muammolar sifatida o‘rganilib chiqilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlar qatori davlatimizda ham ta’lim tizimini isloh qilishga katta e'tibor berilmoqda.Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini aytdi Ta’lim muassasalarining bir turi sifatida maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalarning tarbiyasi,ta’limi, rivojlanishi va salomatligiga yaxshi yo‘nalganligi bilan bog‘liq umumiy xususiyatlariga egadir. Xususan maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati boshqa ta’lim tashkilotlarida kechadigan pedagogik jarayonlardan jiddiy farq qiladi, hamda bugungi kunda ushbu ta’lim turiga e'tibor kuchaytirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta‘riflaydi: “Tarbiyachi - ustoz, bo‘lish uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”- deb ta'kidlaganlar.Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi,g‘oyaviy e‘tiqodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqati o‘qituvchi-tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi.Yana shuni aytib o‘tish joizki pedagog-tarbiyachi o‘z obro‘sini ko‘tarishi va bolajonlarning eng sevimli tarbiyachisi bo‘lishini xoxlasa o‘z fanini, o‘z predmetini, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur.Bolalarni sevgan ularning hayoti bilan qiziqish har biri shaxsni xurmat qilish va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy tarbiyachi pedagog bo‘la oladi.

Bo‘lajak rahbarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda rahbar shaxsga qo‘yiladigan talablardan biri-eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir.Har bir shaxsda kreativlik o‘zi nima? degan fikr ostida savol paydo bo‘lishi turgan gap.Ushbu savolga ya'ni "Kreativlik" tushinchasi nima?-degan savolga quyidagicha javob berish mumkin.Kreativlik (ingl. “create”-yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g‘oyalar ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamdamustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

– fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olish;
– o‘ziga xoslik (originallik);
– qiziquvchanlik;

– farazlar yaratish qobiliyati;

– xayol qila olish (fantaziya)

Rahbarlikda kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hech kimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz. Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhum”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur.

Tarbiyachi pedagog o‘zida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tiborini qaratmog‘i lozim:

1. O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishda nostandart usullardan foydalanish.
2. O‘zida tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish.
3. Ijodiy fikirlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga intilish yangilik yaratishga intilish. Bir qolipda fikrlamaslik.
4. Bolalarning har qanday yutuqlarini maqtashi, rag‘batlantirishi.
5. Bolalarga nisbatan ijodiy yondashish va ijodiy muhitni tashkil qilish.
6. Muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish.
7. Kreativ maydonni yarata olish.
8. Kreativ insonlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo‘lajak mutaxassislarda kreativ kompetentligini rivojlantiris metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish bo‘lajak mutaxassislarning har qanaqa jarayonda o‘zining ijodiy va kreativ qobilyatlarini namoyon qilishida foydali va kerakli jihatlarini ko‘rsatadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan, dunyoni yangicha qarashlar bilan anglaydigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fiklash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassislardan kasbiy faoliyatlarida kreativ kompetentlikni talab etmoqda. Yaponiya maktabgacha ta’lim tizimi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha "shoh" bilan gaplashgandek muomala qilishar ekan.5 yoshdan 15 yoshgacha "qul" bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishar ekan. Yuqoridagi masalaga ham kreativ tomondan qaralganda qanday natijalarga erishish mumkinligini tasavvur qilsak bo‘ladi.

Ma’lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste’dod potentsialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekanlar. Shunday ekan, ayni shu davr bolalarda kreativ qobilyatlarini shakllantirishning ayni vaqtidir. Buning uchun albatta maktabgacha ta’lim tashkilotidagi mutaxassislarning o‘zida kreativ sifat va kreativ kompetentlik shakllangan bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga Oliy ta’lim muassasasida taxsil oluvchi bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitishda “Kreativ Pedagogika asoslari” fanining qo‘shilgani talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur bo‘lguvchi kreativ kompetentligini rivojlantirilishi ta’lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishda xizmat qiluvchi omil bo‘ladi desak adashmagan bo‘lamiz

Xo‘sh, biz uchun kreativlik nega kerak?

Kreativ insonlar har bir sohada, har bir bajaradigan ishida o‘zgalardan ajralib turadi. Chunki ular nafaqat o‘z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki hechkimning xayoliga kelmaydigan g‘oyalar orqali amalga oshirishadi. Shunday ekan kraetivlik muvaffaqiyatimiz kaliti desak adashmaymiz.Kreativlikni shakllantirishda tasavvur muhum ro‘l o‘ynaydi. Dunyoga mashur olim Albert Eynshteyn “tasavvur bilimdan muhum”, deganida aynan shuni nazarda tutgan. Ko‘pincha

noodatiry fikrlar, yechimlar, kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berishimiz zarur.

O‘qituvchining kreativligi, bu uning qat’iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g‘oyalarni izlab topish layoqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy).
2. Axloqiy (o‘z-o‘zini boshqarish).
3. Motivatsion (maqsadli).
4. Emotsional (his-hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativ maqsad.
2. Ijodiy intilish.
3. Kreativ (ustanovka) qurish.
4. Kreativ yo‘nalish.
5. Kreativ ifodali akt.
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish.
7. Kreativ faollik.
8. Kreativ intilishlar darajasi.

Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqatongli, balki ong osti tushunchalari paydo bo‘lishidir.Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o‘ta intellektual-evristik jihati sifatida qaraymiz.

Tadqiqotchi G. Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1.. Intellektual (aqliy). Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innotvasion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, har qanaqa vaziyatga kreativ yondasha oladigan dunyoni yangicha qarashlar bilan anglatadigan kreativ qobilyatlarini rivojlantirish, ularda kreativ fikrlash va tafakkurni shakllantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi pedagog, mutaxassis, tarbiyachilardan kasbiy faoliyatlarida kreativlik kompetentlikni talab etmoqda. Har tomonlama rivojlangan, jismonan baquvvat, barkamol shaxsni voyaga yetkazishda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari hamda mutaxassislarini kreativ rivojlantirishda hamda eng asosiylaridan yana biri oliy ta’lim muassasasi pedagoglarning zimmasidadir.Darslarda tarbiyachi “kreativlik yo‘l xaritasi” ga ko‘raquyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi :

1. Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;
2. Talaba (o‘quvchi) bolalarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga;
3. Rag‘batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
4. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashish;

Kreativlik hozirgi kunda judayam, ayniqsa O‘zbeksitonda tanqis, kam uchraydigan narsalardan biri hisoblanadi. Bunga sabab ko‘pchilik pedagog o‘qituvchilarni o‘z ustida ko‘p ishlamasligida deb aytsak bo‘ladi.Kreativlik uchun qobilyat tug‘ma bo‘lishi kerakmi degan savol

tug‘iladi. Qaysidir ma`noda albatta kerak bo‘ladi. Lekin xammasi mehnatga, o‘z ustida ishlashga boribtaqaladi. Kreativ-pedagog har tomonlama rivojlangan, har bir darsini qiziqarli o‘taoladigan,yangi metodlar va tehnikalardan xabardor va barcha o‘quvchilari uchun sevimli bo‘lgan mahoratli ustoz. Uning darslari g‘aroyib g‘oyalarga boy bòlishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta’limni boshqarish./qo‘llanma/.-M.:Ventana-Graf,2007.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birg quramiz.-T:"O‘zbekiston",2017.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida qo‘yiladigan davlat talablari.T.,2018 y.

4. Л.В.Куцакова. "Конструктирование и ручной труд в детском саду".М.:"Просвещение"..1990

5. Babayeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasinining asosiy mezonlari//Pedagogika ta’lim j. – T.:2001.2-son. 65-66-b.

6. Крысько В.Г. Секреты психологической войны (целый, задачи, методы,формы, опыт). -Минск, 1999.

7. Babanskiy Yu.k., Slastenin V.A., Sorokin N.A., Malkovskaya T.N., Belozersev ye.P., Polyakov V.A., Grishin D.M. Pedagogika / Pod.red.U.K.Babanskogo. -M.: "Prosvesheniye",1991.

8. "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturiga -T., 2018 y